

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

OLLOQOVA O'G'ILJON MAMANAZAROVNA

**ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna

Ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi.....3

Оллокова Угилжон Маманазаровна

Методика совершенствования прагматической компетентности учащихся на основе интенсивных технологий в обучении родному языку.....25

Olloqova Ugiljon Mamanazorovna

Methodology for improving students' pragmatic competence based on intensive technologies in teaching their native language49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

OLLOQOVA O'G'ILJON MAMANAZAROVNA

**ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8256 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fayziyeva Umida Asadovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayeva Bibish Muhsinovna,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'ktamova Shahlo Nurullayevna,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "26" dekabr soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0/494 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12" dekabr da tarqatildi.

(2025-yil "12" dekabr da 51 - raqamli reyestr bayonnomasi).



Y.S. Sayidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.I. G'aybullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

B.R. Adizov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda amalga oshayotgan globallashuv jarayonlari hamda ko'pmillatli jamiyatning kengayib borayotganligi shaxs pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish, shaxslararo munosabatlarni tarkib toptirish, polimadaniy muhitda jamoaviy munosabatlarga doir o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish jarayoniga o'ziga xos talablarni qo'yimoqda. XXI asrda ta'limga asosiy e'tibor qaratib kelayotgan Singapur, Xitoy, Angliya, Finlyandiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi ta'lim tizimi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarida 4K tamoyilini o'z ichiga olgan pragmatik, muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik, kommunikativlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berib, o'quvchilarning til hodisalariga nisbatan o'ta sezgirliги, pragmatik ko'nikmalarini o'zlashtirishda qulay davr ekanligini inobatga olgan holda ma'naviy-madaniy rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion o'qitish texnologiyalarini tatbiq etib kelmoqdalar.

Dunyo mamlakatlari o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishdagi ilg'or tendensiyalardan biri "Men" va "O'zga inson" konsepsiyasi doirasida faoliyat yuritish tendensiyasi ustuvorlik qilib, ushbu tendensiya shaxs o'zligini anglashi va saqlashi hamda ijtimoiy muhit bilan muloqotga kirishuvi faollashadi, "shaxs va jamiyat" munosabatlarini tartibga solishga yordam beradi. Shaxsning muloqot madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'limning pragmatik, formalistik va paradigmal konsepsiyalarning asosini ham shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan modellar tashkil etadi. Shunga ko'ra, pragmatik kompetentlik masalasi psixologiya, pedagogika, lingvistik ta'limga qaratilgan tadqiqotlarning asosiy muammolaridan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Mamlakatimizda o'quvchilar pragmatik kompetentligini rivojlantirish muammolariga ta'lim sifatini yaxshilash, jamiyat a'zolarining faolligini oshirish, o'qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv amaliyotini tatbiq etish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab ta'limini takomillashtirish, ta'lim dasturlari eng ilg'or mamlakatlar tajribasiga moslashtirilmoqda, darsliklar yangilanmoqda. "Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq. Shu bois, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur"¹ ekanligi bugungi kunning dolzarb masalasidir.

2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi // https://uz.uz/uz/posts/maktab-talimidagi-islohotlarning-yangi-bosqichi_720360

mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ona tili o'qitishning mazmuni, integratsiyali ta'lim orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda matn ustida ishlashga doir A. G'ulomov, A. Nurmonov, A. Zunnunov, Q. Yo'ldoshev, B. To'xliyev, Q. Husanboyeva, M. Mirqosimova, Sh. Yusupova, N. Uluqov, M. Abduraimova, T. Ziyadova, R. Safarova, E. Qilichev, B. Yo'ldoshev, X. Muhitdinova, V. Qodirov, X. Qurbonova²larning ilmiy tadqiqotlari yaratilgan bo'lsa-da, biroq til ta'limida matn tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish asosida ularning og'zaki va yozma savodxonlik, notiqlikka doir malaka va ko'nikmalarni, til va nutqqa oid bilimlarini boyitish, rivojlantirish, takomillashtirish monografik tadqiq etilmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan E.S. Aznaurova, L.M. Vasilev, A.I. Vlasenkov, T.B. Dudina, I.A. Zimnyaya, L.G. Luzina, V.N. Marov, V. Myasnikov, O.I. Okulovskiy, M.A. Pautova, G.G. Pochepsov, G.G. Chanisheva³ larning ilmiy izlanishlarida esa o'quvchilarda kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, integral-pedagogik jihatlarini tadqiq etilgan.

² G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.; Nurmonov A., Ziyodullayeva G. O'quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari // Ma'rifat, 2014, 18 iyul. – B.9.; Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: "Aloqachi", 2006. – 163 b.; Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy nazariy asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996.; To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2010. – 157 b.; Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. Monografiya. – Toshkent, 2003.; Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: "Fan", 2006.; Yusupova Sh. Ona tili o'qitish mazmuni. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007.; Uluqov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari. Til va adabiyot ta'limi, 2018. – № 6. – B. 16.; Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005. – 26 b.; Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: "Fan", 2018. – 157 b.; Safarova R. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Toshkent: "Fan", 1995.; Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000; Yo'ldoshev B. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: "Fan", 2007. – 76 b.; Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishda uzluksizlikni ta'minlashning ilmiy-metodik asoslari. Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2008. – 162 b.; Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy kutubxonasi" nashriyoti, 2009.; Qurbonova X. Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari: Ped. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2005.

³ Азнаурова, Э.С. Прагматика художественного слова Текст. Э.С. Азнаурова. – Тошкент: "Фан", 1988. – С.121.; Василев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – Москва, 1990. – С. 67.; Власенков А.И. Методика обучения орфографии в школе. – Москва: "Русское слово", 2012. – С. 232.; Дудина, Т.Б. Прагматическая характеристика текста и его лингводидактическая направленность // Проблемы лингвистического анализа текста. Коммуникативно-прагматический аспект. – Иркутск: ИГПИИЯ, 1990. – С. 5-10.; Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. – Москва: Исслед. Центр пробл. качества подгот. Специалистов, 2004. – С. 25.; Лузина Л.Г. Распределение информации в тексте: когнитивный и прагмалингвистический аспекты. – Москва, 1994. –

Xorijiy davlatlar olimlari J. Culler, S. Kanngisser, G. Leech, H.P. Grice⁴larning ilmiy izlanishlarida pragmatik lingvistik muammolari, xususan, soʻzlarning matndagi maʼnolarini aniqlash hamda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-madaniy, psixologik va lingvistik jihatlari ochib berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Boshlangʻich taʼlimga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish metodikasini takomillashtirish (2021 – 2024-y.y.)” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ona tili taʼlimida intensiv texnologiyalar asosida oʻquvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

ona tili taʼlimida intensiv texnologiyalar asosida oʻquvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning mavjud holatini pedagogik va metodik jihatdan tahlil qilish;

ona tili taʼlimida intensiv texnologiyalar asosida oʻquvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish bosqichlari va tashkiliy-metodik komponentlarini aniqlashtirish;

ona tili taʼlimida intensiv texnologiyalar asosida oʻquvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning didaktik taʼminotini takomillashtirish;

ona tili taʼlimida intensiv texnologiyalar asosida oʻquvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ona tili taʼlimida intensiv texnologiyalar asosida oʻquvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlari uchun Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari umumiy oʻrta taʼlim maktablari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ona tili taʼlimida intensiv texnologiyalar asosida oʻquvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirish, ilmiy xulosalarga kelishda nazariy-mantiqiy tahlil, leksik-semantik tahlil, uslubiy tahlil, pragmatik tahlil, struktural tahlil, matematik-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, kommunikativ-funksional tahlil, suhbat metodlaridan foydalanildi.

C.175.; Маров В.Н. Прагматико-стилистическая характеристика речи партнеров коммуникации // Сборник науч. трудов: Прагматика и стилистика текста. Алма-Ата: КазГУ, 1988. – С. 173.; Мясников В., Найденова Н. Компетенции и педагогические умения // Народное образование. – 2006. – № 9. – С. 153.; Окуловский О.И. Компетенции и компетентностный подход в обучении // Молодой ученый. – Москва, 2012. – №12. – С. 499-500.; Паутова М.А. Развитие коммуникативной компетентности студентов экономических специальностей: Дисс... канд. пед. наук. – Сибирский университет путей сообщения, 2009. – С. 213.; Почепцов Г.Г. Прагматика текста // Коммуникативно - прагматические и семантические функции речевых единств: изд-во Калинин. гос. ун-та. – Калинин, 1980. – С. 5-10.

⁴ Culler, J. Structuralist Poetics: Structuralism, Linguistics, and the Study of Literature London. Ithaca: Cornell University Press, 1975. –R – 107.38.; Kanngisser S. Sprachkldningen und Sprachbeschreibungen. In: Wissenschaftstheorie der Linguistik. Hsg.: Wunderlich D. –Kronberg, 1976. – P.160.; Leech G. Principles of pragmatics. – London, 1983. – P. 250.; Grice H.P. Prepossupposition and conversation implicature. In: Radical Pragmatics – New York, 1981. – P. –198.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ona tili darslarida o'quv materiallarining intensiv texnologiyalar asosida ta'minlanishi o'quvchilarda lingvistik bilimlarning o'zgarmas va o'zgaruvchan tushunchalarni shakllantirishning interiorizatsiya (tushunchaning ichki qabul qilinishi), eksteriorizatsiya (tashqi namoyon bo'lishi) va refleksiv-baholash kabi xususiyatlari aniqlashtirilgan;

ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan didaktik model mazmuni shaxsiy ta'lim dasturida o'quvchining o'qish maqsadlari va faoliyat turlarini belgilash hamda metodik tamoyillarni faol ta'lim strategiyalari bilan uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning metodik tizimi "Ona tili" darslarida lokutiv, illokutiv va perlokutiv mazmunga ega metodlarni qo'llash, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini baholash mezonlari bilan diagnostika qilish imkonini beruvchi didaktik muhitni yaratish orqali takomillashtirilgan;

darsdan tashqari mashg'ulotlarning intellektual-ijodiy va korreksion rivojlantiruvchi funksiyalarini oshirish asosida evristik ko'nikmalarni rivojlantirish orqali intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish samaradorligi aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishga tizimli yondashish metodikasi amaliyotga joriy etilib, ona tili darslarida pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish vositalari keng tahlil qilingan, tavsiyalar berilgan;

ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida til ta'limiga yangicha yondashuv asosida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish bilan bog'liq metodika takomillashtirilgan;

tadqiqot natijalaridan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi DTS va o'quv dasturlari, shuningdek, darsliklar yaratishda foydalanilgan;

tadqiqot natijalaridan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqiladigan metodik ko'rsatma va tavsiyalarni tayyorlashda va mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasining dialektik metodi, til va nutq hodisalarini tizimli o'rganish texnologiyasi, O'zbekiston Respublikasi, xorijdagi pedagog va psixolog olimlarning ilmiy-nazariy g'oyalariga asoslanilganligi, bir-birini uzluksiz to'ldirib boruvchi virtual usullar qo'llanilganligi, tilni tizimli o'rganish, pragmatikaga asoslangan nutqiy kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish mexanizmi yaratilganligi, tadqiqotda olg'a surilgan ilmiy g'oyaning tajriba-sinovda ijobiy natija berganligi, olingan natijaning matematik-statistik tahlil metodi asosida umumlashtirilganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning

pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish muammolari, ona tili darslarida pragmatik kompetensiya bilan bog'liq ta'lim mazmunining mavjud holati tahlilga tortilganligi, til ta'limida intensiv texnologiyalardan foydalanishga doir takliflar ishlab chiqilganligi, o'quvchilarning lingvistik ko'nikmalarini lug'at zaxirasidagi so'zlar asosida taqqoslash, o'quv topshiriqlarini bajarishda so'zlarning muvofiqligini tanlash va amalda samarali qo'llash malakasini egallash masalalari yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalar va amaliy tavsiyalardan "Ona tili" darsliklarini yaratishda, ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida til ta'limi samaradorligini oshirishda, darslik va qo'llanmalar yaratishda, malaka oshirish kurslarida ma'ruzalar o'qishda, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida foydalanishlariga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi bo'yicha erishilgan ilmiy natijalaridan:

ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning metodik tizimi "Ona tili" darslarida lokutiv, illokutiv va perlokutiv mazmunga ega metodlarni qo'llash, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini baholash mezonlari bilan diagnostika qilish imkonini beruvchi didaktik muhitni yaratishga oid tavsiyalar "Ona tili va o'qish savodxonligidan sinfdan tashqari ishlar" nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrda 429-son buyrug'i. Guvohnoma №429-670). Natijada, o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi zamonaviy yondashuvlar asosida boyitilgan;

ona tili darslarida o'quv materiallarining intensiv texnologiyalar asosida ta'minlanishi o'quvchilarda lingvistik bilimlarning o'zgarmas va o'zgaruvchan tushunchalarni shakllantirishning interiorizatsiya (tushunchaning ichki qabul qilinishi), eksteriorizatsiya (tashqi namoyon bo'lishi) va refleksiv-baholash kabi xususiyatlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar OT-F1-002-raqamli "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" nomli loyiha mazmuniga singdirilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 11-oktabrdagi № 01-04/6082-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning lingvistik bilimlarini pragmatik asosda idrok etish kompetensiyalari rivojlantirilgan, til sezgirligini oshirishda sezilarli natijalarga erishilgan;

darsdan tashqari mashg'ulotlarning intellektual-ijodiy va korreksion rivojlantiruvchi funksiyalarini oshirish asosida evristik ko'nikmalarni rivojlantirish orqali intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishga doir ilmiy xulosalardan Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 5-, Oltinsoy tumanidagi 41-, Jarqo'rg'on tumanidagi 61-, Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi 3-, 5-, Buxoro shahridagi 6-, 10-, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 4-umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida amaliyotga tatbiq etilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika

ta'lim markazining 2025-yil 16-yanvardagi 01/11-6-31-son ma'lumotnomasi). Natijada, dars jarayonida "Aql xaritalari" bilan ishlash, didaktik o'yinlarni uyushtirish hamda lug'at ustida ishlash orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini yanada takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta, shundan 11 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **"Kirish"** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati belgilangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Ona tili ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari"** deb nomlanadi. Unda o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirish metodik muammo ekanligi, ona tili ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslari hamda ona tili ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning joriy holati yoritilgan.

Bobning *"O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirish – metodik muammo"* deb nomlangan birinchi bo'limida ona tili ta'limida o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirishning mazmun-mohiyati atroflicha tahlil qilingan. Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar mazmuni yoritilgan.

"Intensiv" atamasi XIX asrning birinchi yarmida rus lug'atida paydo bo'lgan. Bu so'z fransuz tilidan "qizg'in", "kuchaygan", lotin tilidan – "baquvvat", "jonli", "tezkor", "bo'ronli", ispanchadan – "cho'zish", "kattalashtirish", "kengaytirish" deb tarjima qilinadi.

Intensiv ta'lim pedagogik ensiklopediyada quyidagicha izohlanadi: (fransuzcha "intensif", lotincha "intension" – "g'ayrat qilish", "kuchayish" "jadal") tezkor amalga oshiriladiga o'quv jarayoni⁵.

⁵ Pedagogika ensiklopediya. 2 jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2015, - 376 bet. 105-bet

Bizning fikrimizcha, intensiv ta'lim texnologiyalari bu – qisqa vaqt mobaynida katta hajmli bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga qaratilgan oldindan loyihalashtirilgan texnologiyalardir.

“Intensiv” tushunchasi keng qamrovli bo'lib, nafaqat ta'limda, balki qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimida ham keng qo'llanilmoqda: intensiv bog', intensiv nav, intensiv yetishtirish, intensiv parvarish va boshqalar.

O'zbekistonda maktab ta'limini yangi bosqichga ko'tarishda rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga tayanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, maktab ta'limi bugungi kunga qadar rivojlanishning bir qancha bosqichlaridan o'tgan. O'quv jarayonini tashkil etishda bir qancha ta'lim tizimlari amalga kiritilgan. O'zini oqlamagan tizimlar o'rnini boshqasi egallab boravergan (1.1-rasmga qarang).



“1.1-rasm.” Intensiv ta'lim funksiyalari.

Pragmatizm falsafiy ta'limot bo'lib, kishilarning oldida ko'ndalang turadigan, turli hayotiy vaziyat, faoliyat jarayonida ular duch keladigan muammolarni hal qilish, amaliyotda insonga nima ko'proq foyda bersa, o'shani o'rgatishga ko'proq ahamiyat berish zarur, degan g'oyani ilgari suradi. Pragmatika (yun. pragma, pragmos – rus. практический, практический; - o'zb. ish, harakat, amaliy;) insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi.

Pragmatikada nutq subyekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va hokazo) nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatik kompetensiya quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyidan iborat:

- muloqot qilishning lisoniy (fonetik, leksik, grammatik) birliklarini va ulardan foydalanish qoidalarini, ya'ni ma'no ifodalashda til birliklarini qayta shakllantira

olishni bilish (kommunikativ kompetensiyaning lingvistik komponenti);

- til vositalaridan muloqot muhiti, vaqti, joyi, maqsadiga, shuningdek suhbatdoshning ijtimoiy mavqeyiga mos ravishda foydalana olish ko'nikmasi (sotsiolingvistik komponent);

- mazmun tarkibidagi asosiy fikrni tushunish va isbotlangan fikrga mazmunan bog'langan axborotni taqdim eta olish ko'nikmasi;

- tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy-madaniy xususiyatini bilish hamda ushbu xususiyatga muvofiq tarzda nutqiy va boshqa xatti-harakatlarini idora qilishni bilish (ijtimoiy-madaniy komponent);

- muloqot vaziyatini baholash va tahlil qilish hamda shunga muvofiq o'zining nutq harakatini nazorat qila olish, o'zining va muloqotdoshining nutqiy harakatlarini nazorat qilish, shuningdek, muloqot tajribasidan foydalanib chet tilidan bilimlaridagi nuqsonlar o'rnini to'ldira olish ko'nikmasi (kompensatsiyalovchi yoki strategik komponent).

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv talabi esa o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi. **Kompetensiya** tushunchasi lotincha "*competentia*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, izohli lug'atda "qonunan ega", "haqdor" degan ma'noni anglatadi, umumiste'molda keng ishlatiladigan "qobiliyat", "ko'nikma", "iqtidor" tushunchalariga yaqin turadi.

Pragmatik kompetensiya – muayyan vaziyatlardan ustalik bilan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo'lish. Pragmatika atamasi lingvistik adabiyotlarda keng ma'noda qo'llanila boshlansa-da, ayni vaqtda bir qator tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, lingvistik pragmatika tushunchasining aniq chegaralari belgilangan emas. Ularning fikricha, pragmatika kommunikativ vazifalarni hal qilish maqsadida lisoniy vositalardan tanlab foydalanishni nazarda tutuvchi real muloqot vaziyati sifatida talqin qilinadi.

Bobning "*Ona tili ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslari*" deb nomlangan ikkinchi bo'limida ona tili ta'limida umumiy kompetensiyalar tizimida pragmatik kommunikativ kompetensiyani shakllantirish mazmuni xususida fikr bayon etilgan.

Kommunikatsiya jarayonining ishtirokchilari so'zlashuv yoki yozishmalarida fikr ifodalashda aniqlikka va kommunikativni hisobga olgan holda tushunarli uslubga intilishlari bu tamoyilning asosini tashkil qiladi. Bunda kommunikant kommunikativ uchun notanish, tushunishi mushkul so'z va iboralarni iloji boricha ishlatmasligi, ishlatgan taqdirda o'z o'rnida uni izohlab ketishi; fikr ifodasida mavhumlik, g'alizlikka yo'l qo'ymasligi; bayonning lo'nda va qisqa bo'lishi; nutq qurilishida fikr izchilligi, mantiqiy aloqadorlik va ketma-ketlik relevantlikni ta'minlaydi.

Umumiy tayanch kompetensiyalar sirasidagi ijtimoiy faollik kompetensiyasi o'zi yashayotgan jamiyat muammolariga daxldorlik, fuqarolik burchi va huquqlarini bilish, ularga rioya qilish, ijtimoiy muloqot va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ona tili predmeti nuqtayi nazaridan jamiyat muammolariga daxldorlik ona tilining ijtimoiy nufuzi muammolariga e'tiborli bo'lish, uning jamiyatda o'ziga mos yuqori mavqeda o'rin tutishiga

jonkuyarlik tuyg‘usi bilan yashashdir.

Til ta’limi nuqtayi nazaridan esa sog‘lom turmush tarzi tilning sofligiga rioya qilish, til sofligiga putur yetkazadigan omillarni bartaraf etish, o‘zaro muloqotda “ommaviy madaniyat”ga doir unsurlarga berilmaslik kabilarni o‘z ichiga oladi.

“Ona tili ta’limida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning joriy holati” deb nomlangan uchinchi bo‘limida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili fanidan davlat ta’lim standarti malaka talablarida o‘quvchilarni shaxs sifatida kamol toptirish maqsadi til imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirishga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bilan bevosita bog‘liq holda amalga oshirilishida ona tilini boshqa tillar bilan integratsiyalab o‘rganishga doir tegishli yondashuvlar mazmuni bayon qilingan. O‘quv jarayonida o‘qituvchi bir yoki bir necha mashg‘ulot yoki hatto bir necha daqiqa ichida o‘quvchini ilgari turli fanlarga oid o‘zlashtirilgan bilimlariga tayanuvchi subyektiv yangi bilimga “olib kelishi” kerak bo‘ladi. Nazarimizda, bilimlarning har qanday olib o‘tilish holati subyektiv yangi bilimlar sinteziga olib kelmaydi. Buning uchun ushbu bilim inversiyaga uchrashi lozim. Bizningcha, ona tili darslarini integratsiyalab o‘rganish mazmuniga ish vaqti, uning borishini rejalashtirish, natijalarining samarali bo‘lishiga doir yondashuvlarni belgilash, topshiriqlar ketma-ketligi dasturini yaratish, ularni amalga oshirishga doir oqilona usullar, metodlar va vositalarni tanlash kabilarni kiritish mumkin. Demak, pragmatik kompetensiyani shakllantirish harflarni to‘g‘ri talaffuz etish va yozish, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o‘qish; gapdagi tinish belgilarining talaffuzda aks etishi va yozilishi; fikr bayon qilish uchun zarur bo‘lgan ayrim grammatik vositalarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish, xalq og‘zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o‘qib tushuna olish kabi talablarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi bob **“Ona tili ta’limida intensiv texnologiyalar asosida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning metodik ta’minoti”** deb nomlanib, bobda ona tili ta’limida o‘quvchilarning fonetik, leksik va so‘z yasallishiga oid bilimlar asosida pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning shakl, usul va vositalari, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyani shakllantirishning malaka talablari, intensiv texnologiyalar asosida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish modeli va metodikasi tahlilga tortilgan.

Bobning *“Ona tili ta’limida o‘quvchilarning fonetik, leksik va so‘z yasallishiga oid bilimlar asosida pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishning shakl, usul va vositalari”* deb nomlangan birinchi bo‘limida ona tili va adabiyot darslarida badiiy asarni fonetik, leksik tahlil qilish orqali o‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish mazmuni yoritilgan. Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so‘zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo‘llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini

aniqlash bilan shug'ullanadi, deyish demakdir. Pragmatik kompetensiyani darslikda berilgan matn misolida shakllantirishni ko'rib chiqamiz. Buni O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidan olingan "Iltijo" qismidagi quyidagi kichik parcha orqali ko'rib o'tamiz.

"Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim..."

Qarang, oyi, tag'in ko'klam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, ko'm-ko'k maysalarni ko'rib quvonardingiz". Bu o'rinda o'quvchilarga matndagi so'zlarning pragmatikasini his qildirish uchun o'zgacha savollar tizimini qo'yish mumkin. Masalan:

Nima uchun asar qahramoni "oyi" deb murojaat qilar ekan, ikki bor "men keldim" deb ta'kidlamoqda va "eshityapsizmi?" deb so'ramoqda?

Matndagi "yana", "tag'in" so'zlarining ishlatilishiga e'tibor bering. Ular qanday ma'noga ishora qilmoqda?

O'zaro ma'nodosh bo'lgan "ko'klam" va "bahor" so'zlarining ma'nosi va ishlatilishida farq bor deb bilasizmi? Izohlab bering.

Sizningcha, yozuvchi "oftob" o'rniga "quyosh" hamda "osmon" o'rniga uning ma'nodoshlari "ko'k" yoki "samo" so'zlarini ishlatib bo'larmidi? Nima uchun? Bu savollarga nutq so'zlanib turgan makon (joy) va sharoit (holat) e'tiborga olinsagina to'g'ri javob berish mumkinligi ta'kidlanadi. Monolog qabristonda, to'g'rirog'i, ona qabri ustida aytilmoqda. So'zlovchi (adib) mahzunlik, armon va sog'inch holatida. Aqli bilan onasi uning kelganini bilmasligi, sezmasligini bilsa ham qalbi bilan bunga ko'nika olmaydi. Shu bois, "men keldim" – deb takrorlaydi, "eshityapsizmi?" – deb so'raydi. O'qituvchi bu o'rinda "yana", "tag'in" sinonimlarining pressuppozitsiyasiga o'quvchilar diqqatini tortishi lozim. O'quvchilarda qanday hollarda bu ravishlarning ishlatilishini so'raydi. Albatta, o'quvchilar bu ikki so'z takrorlanayotgan harakat, holat kabilarni ifodalash uchun qo'llanishini biladilar. "Men yana keldim" jumlasidagi "yana" ravishi so'zovchining bu yerga oldin ham kelib turganligiga urg'u berishga yordam beradi.

"Ko'klam" va "bahor" so'zlari borasidagi savolga o'quvchilar qoniqarli javob berolmasliklari mumkin. O'quvchilar fikrini eshitgach, o'qituvchining tushuntirib berishi sinonimlar pragmatikasini ham anglashlariga yordam beradi. Bu ikki so'z o'quvchilar uchun ma'noga ko'ra farqi yo'qday tuyuladi, lekin matndan kelib chiqib mazmunan bir xil emasligi ta'kidlanadi. "Ko'klam" ko'karish bilan bog'liq bo'lib, tabiatning ilk uyg'onish vaqtini anglatadi. Shu sabab "Har yili bahor kirishi bilan" deyilmoqda. Demak, tilimizda "bahor" butun bir faslga, "ko'klam" esa uning dastlabki kunlariga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, "oftob", "osmon" o'rniga ularning sinonimlari ishlatilmaganligining sababi "muloqot" maishiy xarakterda, ya'ni og'zaki so'zlashuv uslubida ekanligi bilan izohlanadi. Adib o'z onasi bilan xayolan xuddi yuzma-yuz o'tirib gaplashayotganday bo'ladi. Bunday suhbat muhiti sodda og'zaki so'zlashuv uslubida, har qanday badiiy bo'yoq yoki ilmiy uslub unsurlaridan xoli bo'lishi ta'kidlanadi.

Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standartida

o'quvchilarning pragmatik kompetensiyalarini shakllantirish A2 darajasida malaka talablari belgilangan⁶ bo'lib, bular quyidagilardan iborat (2.1-jadvalga qarang):

“2.1-jadval.”

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyani shakllantirish A2 darajasi malaka talablari

5-sinf	talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini izohlay oladi. Yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi. Gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, undalma, kirish so'z, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi; so'zlarni fonetik tahlil qila oladi; matndagi so'zlar ma'nosini izohlaydi va leksik, morfologik tahlil qila oladi. O'rganilgan ifoda vositalarini og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llaydi.
6-sinf	so'z tarkibi va so'z yasashini farqlay oladi; mustaqil so'z turkumlari (fe'l, ot, sifat, son, ravish)ni izohlay oladi; mavzu doirasida fonetik va leksik, morfologik tahlil qila oladi, o'rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o'rinli foydalana oladi.
7-sinf	olmosh so'z turkumi, so'zlarning yordamchi so'z turkumlari, undov, taqlid so'zlarni izohlay oladi, gaplarning ifoda qurilishida foydalana oladi.
8-sinf	gapning uyushiq, ajratilgan bo'laklari va kiritmalarni biladi; yangi so'z, ibora va istilohlarni o'zlashtiradi, izohlay oladi, sodda gapni sintaktik tahlil qila oladi.
9-sinf	matnning maqsadi haqida biladi, ergash gapli qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap, ko'chirma gapli qo'shma gaplarni izohlay oladi. Nutqda o'rinli foydalana oladi.

Fikrimizcha, pragmatik ko'nikmalar matnni o'qish, ajratilgan qismlarini tahlilga tortish, gap bo'laklarining ifodalanishi, uning turlarini aniqlash asosida o'quvchilarning til sathlari bo'yicha egallagan bilimlarini tushunish, umumlashtirish, tizimlashtirish, xulosalash tarzida amalga oshira olish qobiliyatidir.

“Ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish modeli” deb nomlangan bobning ikkinchi bo'limida ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishda keys texnologiyasidan foydalanish mazmuni yoritilgan.


Ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishda insonparvarlik tarbiyasini berish hamda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish maqsadida interfaol usullar qo'llandi. Ayniqsa, insonparvarlik mazmunidagi matn tahliliga intensiv texnologiyalar nuqtayi nazaridan yondashish quyidagi masalalarni hal etishga yordam berdi: matnni idrok qilish va tushunishda germeneytik tamoyillarni qo'llash; badiiy matnning semantik, struktural va mantiqiy tiplarini aniqlash; matnning leksik, sintaktik-semantik va pragmatik xususiyatlari reallashuvida shaxs rolini ochib

⁶ Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili Adabiyot. (5–9-sinf) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. –B.– 30-, 39-, 45-, 52-, 58.

berish. Tadqiqotda intensiv texnologiyalar sirasiga kiruvchi “Keys - stadi” texnologiyasi keng tavsiflangan. Jumladan, keys-stadi – keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni ta’minlaydigan, bir tartibga keltirilgan, optimal usullar va vositalar majmuyidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir.

Keys-stadi texnologiyasi tadqiqotimiz davomida quyidagilarni ta’minladi:

- o‘rganilgan o‘quv mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammolarni tahlil qilish, qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko‘nikmalarini hosil qilish;
- ijodiy va o‘rganish qobiliyatlarni, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- yangilikka, ijodkorlikka, qarorlarni mustaqil qabul qilishga tayyorgarlik;
- mas’uliyatlilik, mustaqillik, kommunikativlikning shakllanishi;
- o‘zlashtirish sifatini o‘zi tekshirishini (2.2-rasmga qarang).



“2.2-rasm.” Pedagogik keyslarning turlari.

O‘quv mashg‘ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha bo‘ldi: topshiriqni berish va uni bajarish muddatini belgilash, keysning yechimini baholash tizimi bilan tanishtirish, darsning texnologik modelini aniqlash; o‘qituvchining kirish so‘zi, asosiy savollarning qo‘yilishi; o‘quvchilarni mikroguruhlariga ajratish; ularning faoliyatini tashkil qilish; javoblar bilan tanishishini tashkil qilish; mikroguruhlararo munozarani tashkil qilish; o‘qituvchining umumlantiruvchi so‘zi, uning pedagogik vaziyat yechimi to‘g‘risidagi fikri; ekspertlar tomonidan baholanishi; o‘quvchilarning mashg‘ulot haqidagi fikrlari; o‘qituvchining yakunlovchi so‘zi; mashg‘ulot bo‘yicha xulosalar chiqarish.

Ona tili ta’limida intensiv texnologiyalar asosida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetish va bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olish; ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari, yutuqlaridan muntazam xabardor bo‘lish; o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lish, o‘z ustida tinimsiz izlanish; husnixat bilan yoza olish malakasiga ega bo‘lish; adabiy til qoidalarini yaxshi bilish, sheva ta’sirini nazarda tutish; ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish; pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish; ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli


foydalana olish; yuksak darajadagi pedagogik mahorat, ya'ni kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika qoidalarini chuqur o'zlashtirib olish kabi talablar qo'yiladi (2.3-jadvalga qarang).

“2.3-jadval.”

Ta'limda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning qiyosiy tavsifi

Mezonlar	Ko'rgazmali an'anaviy ta'lim	Texnologik ta'lim	Tadqiqiy-ijodiy ta'lim	Modulli ta'lim
O'qituvchining roli	O'qituvchi bilim beruvchi.	O'quv jarayonini tizimli yondashuvdan foydalangan holda loyihalash va uni amalga oshirishga qaratiladi.	Diqqat ta'lim oluvchining turli variantlarni baholash, qaror qabul qilish, muammolarni yechishga qaratiladi.	E'tibor ko'proq ta'lim oluvchiga, uning o'z ustida mustaqil ishlashi hamda o'z-o'zini nazorat qilishiga qaratiladi.
O'quv maqsadining qo'yilishi	O'quv maqsad-vazifalari doimo aniq qo'yilavrmaydi.	Ko'zlanayotgan natijaga ko'ra maksimal darajada o'quv maqsadlari aniq bo'ladi.	O'quv jarayonidan qo'yilgan maqsadni izlanish, tadqiqot o'tkazish tarzida tashkil qilinadi.	Har bir mavzu, ta'limning maqsadiga ko'ra alohida birlik modullarni izchil holda chuqur o'zlashtirish.
Maqsadga erishish uchun harakat	Tayyor bilimlar bayon qilinadi.	O'qitish o'quvchilarning faol qatnashishi orqali amalga oshiriladi.	Ma'lumotlar to'planadi, gipoteza va farazlar ilgari suriladi, tekshiriladi.	Ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash va nazorat qilish, baholash orqali amalga oshiriladi.
Ta'lim berishning o'quv metodlari	Bayon qilish, hikoya, tushuntirish, reproduktiv metodlar.	Ta'lim jarayonida interfaol metodlar qo'llaniladi, vaziyatga ko'ra tuzatishlar kiritish mumkin.	O'quvchilarning shaxsiy tashabbusi, yangi bilimlarni mustaqil o'rganishlarini qo'llovchi metodlar.	Maqsadni amalga oshirish samaradorligini ta'minlovchi metodlarni tanlash va moslashtirish.
O'quvchining bilim olishini ta'minlash	Axborotlarni to'plash, xotirada saqlab qolish, mustahkamlashga doimo undash.	O'quvchining faolligini ta'minlash, mustaqil o'qishga o'rgatish.	Mustaqil, tahliliy fikrlash faoliyati yuz berishi uchun muhit yaratish, o'z ustida muntazam ishlash.	O'z ustida mustaqil muntazam ishlash, ijodiy izlanish uchun qulay muhit yaratish.
Dars jarayoni algoritmi	Mashg'ulotlar akademik xarakterga ega bo'lib, bo'lg'usi mutaxassislik faoliyati bilan yetarlicha bog'lanmagan.	Qo'yilgan maqsadga erishish uchun bajariladigan amallarni rejalashtirish va ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirish.	Ta'limda hamkorlik qilish, eksperiment, tajriba-sinov o'tkazish, modellashtirish asosida dars jarayonini loyihalashtirish.	Mavzu va modul bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish, ularni bajarishni loyihalashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish.
Erishiladigan natija	Mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish ko'nikmasi rivojlanishiga imkon yaratilmaydi.	Rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish.	Tahliliy, tanqidiy, ijodiy fikrlay bilish.	Minimal darajada qanday natijaga erishishni aniq belgilash. Qo'yilgan maqsadga kafolatli erishish.

Yuqoridagi qiyosiy tahlildan ham ma'lum bo'lyaptiki, texnologik ta'limda ham, tadqiqiy-ijodiy ta'limda ham, ayniqsa, modulli ta'limda o'qituvchining e'tibori ko'proq ta'lim oluvchiga, uning o'z ustida mustaqil ishlashi hamda o'z o'zini nazorat qilishga qaratiladi.



“2.4-rasm.” Ona tili ta’limida intensiv texnologiyalar asosida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish modeli.


Modelning natija bloki kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarida kasbiy-ma’naviy fazilatlar rivojlanganligining majmuaviy aniqlash mezoni va baholash ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Demak, ona tili ta’limida

intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida tashkiliy tayyorgarlik, amaliy jarayonlar davomida motivatsion-qadriyatli, intellektual, operatsion texnologik, ijodiy faoliyat kompetentligi rivojlantiradi. Tadqiqot doirasida ona tili ta'limida intensiv texnologiyalar asosida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. (2.4-rasmga qarang)

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limi "*Ona tili ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini takomillashtirishda intensiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi*" deb nomlanadi. Bu bo'limida intensiv texnologiyaga asoslangan mashg'ulot tuzilmasi hamda foydalanilgan bir qancha usullar mazmuni yoritilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni amalga oshirmay turib, qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samara bermaydi.

Qo'l		
Ta'rif. Odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi	Gapda qo'llanilishi: baquvvat <i>qo'llar</i> , <i>qo'lni</i> oldinga cho'zmoq, ikki <i>qo'lni</i> yuqori ko'tarmoq. Bosh qashigani ham <i>qo'li</i> tegmaydi.	
Suratda aks etishi:		

Ilm – (*miya*, *bosh*, *aql*) *chirog'i*. Topshiriqni bajarishda "**Toifalash**" grafik shaklidan foydalaniladi. Chunki mavhum otlarni suratda aks ettirishning iloji yo'q.

Miya	Bosh	Aql
Odam va ba'zi hayvonlar nerv sistemasining bo'limi; odamda tafakkur ma'nosini ifodalaydi.	Tananing bo'yindan yuqori qismi, kalla. Anatomiya fanida <i>bosh</i> so'zi <i>miya</i> so'zi bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin.	Fahm-farosat, idrok, es, hush so'zlariga sinonim bo'lgan so'z.
Lekin yuqorida keltirilgan maqolga uslubiy jihatdan umuman mos kelmaydi.	Yuqorida keltirilgan maqolga uslubiy jihatdan mos kelmaydi.	Uslubiy jihatdan ham o'rinli. <i>Ilm</i> – <i>aql chirog'i</i> .
		Ushbu so'zni suratda aks ettirib bo'lmaydi.

